

Bahor malikasi

"Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti Yoshlar kengashi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Bahor malikasi" ko'rik-tanlovi fakultetimiz faollar zalida bo'lib o'tdi.

Ko'rik-tanlovga birlashtirilgan hakamlar hay'ati fakultetimizning iqtidorli, yaxshi oshpaz va barcha sohalarda o'z faolligi bilan ajralib turuvchi qizlarimizni mahoratlarini baholashdi.

Bugungi ko'rik-tanlovda 5 ta shart bo'yicha qizlarimiz bellashdi.

- Tanishtiruv;
- Tezkor savol-javob;
- O'zbekiston mening nigohimda;
- Tasavvur;
- Erkin shartlar bo'yicha bellashib o'z iqtidorini va mahoratini namoish etishdi.

Fakultet Yoshlar ittifoqi kengashi tomonidan ilk bora o'tkazilgan tadbirda oliy o'ringa Sultonova Charos Rustam qizi (307-guruh), ikkinchi o'ringa Ismoilova Komila (103-guruh), uchinchi o'ringa Alimardonova Nozigul (307-guruh) sazovor bo'ldi.

Albatta, faoliyatimiz davomida bunday qizlarimizning faollikini oshirishga qaratilgan tadbir, ko'rik - tanlovlarni ko'plab amalga oshiramiz.



Fakultet Yoshlar yetakchisi Iskandarov Haytboy axboroti
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov